



Participation in team and results of Surkhandaria's paralympian athletes in Uzbekistan

Ilyas KHASANOV¹

Termez State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2022

Received in revised form
20 June 2022

Accepted 25 July 2022

Available online

15 August 2022

Keywords:

Paralympic games,
system,
team,
spiritually pure,
intellectually mature,
physically strong,
mature,
patriotic,
courage,
perseverance,
"Sprouts of Hope",
"Perfect Generation",
"Universiade".

ABSTRACT

This article contains information about the participation of the national team of Uzbekistan in the Paralympic sports competitions, the achievements and results of the representatives of our team, as well as the conditions created for Paralympic sports in our country. At the same time, information is provided about the Surkhandarya's athletes who participated in the Paralympic sports competitions as part of our team, this article serves as one of the important sources for specialists and students of physical education.

2181-1415/© 2022 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss4-pp159-163>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Surxondaryolik paralimpiyadachi sportchilarning O'zbekiston terma jamoasi tarkibidagi ishtiroki va natijalari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

paralimpiya,
tizim,
terma jamoa,
ruhan pok,
ma'nan yetuk,
jismonan baquvvat,
barkamol,

Ushbu maqolada Paralimpiya sport musobaqalarida O'zbekiston terma jamoasining ishtiroki va terma jamoamiz vakillarining qo'lga kiritilgan yutuqlari, natijalari va mamlakatimizda paralimpiya sport turlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan. Shu bilan birga, terma jamoamiz tarkibida Paralimpiya sport musobaqalarida ishtirok etgan surxondaryolik sportchilar

¹ Associate Professor of the Department of Physical Education, Termez State Pedagogical Institute.

vatanparvar,
jasorat, matonat,
“Umid nihollari”,
“Barkamol avlod”,
“Universiada”.

haqidagi ma'lumotlar keltirilgan, bu maqola soha mutaxassislari va jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun muhim manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Участие и результаты Сурхандарьинских спортсменов-паралимпийцев в составе сборной Узбекистана

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

паралимпийские игры, система, сборная, морально чистая, духовно развитая, физически сильная, идеальная, патриотичная, мужество, упорство, «Умид нихоллари», «Баркамол авлод», «Универсиада».

В данной статье содержится информация об участии сборной Узбекистана в паралимпийских спортивных соревнованиях, о достижениях и результатах представителей нашей сборной, а также об условиях, созданных для паралимпийских видов спорта в нашей стране. Вместе с тем, представлена информация о сурхандарьинских спортсменах, участвовавших в паралимпийских спортивных соревнованиях в составе сборной Узбекистана.

Dunyoda barcha sohalar singari jismoniy tarbiya va sport sohasi ham xalqlar va elatlarning kelajak avlodini, ya'ni ertangi kuni bo'lgan yoshlarini i ruhan pok, ma'nan yetuk va jismonan baquvvat va har tomonlama barkamol etib tarbiyalash bilan birga jismoniy tarbiya va sport orqali aholi salomatligini mustahkamlashning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Dunyo mamlakatlari yosh avlodni jismonan chiniquqan va barkamol etib tarbiyalash qatorida har bir mamlakat o'z kelajak avlodlari bo'lgan yoshlarni o'z vatanlariga mehr va sadoqat bilan xizmat qiladigan farzandlar qilib tarbiyalashni ham o'z oldilaridagi oliy maqsadlardan biri deb bilishib, jismoniy tarbiyaning ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarini shunga mutanosib holda ishlab chiqaradilar va amalga oshiradilar.

O'zbekiston jismoniy tarbiya tizimining ham ta'lim muassasalarida o'zlari uchun ta'lim mazmunini hal etishga qaratilgan bobida yosh avlod tarbiyasida jismoniy tarbiyaning maqsadi yosh avlodni vatan himoyasiga munosib har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga doir band mavjud bo'lib, bunda yosh avlod nafaqat harbiy, balki dunyo arenalarida sportning barcha turlari bo'yicha o'tkazilib kelinayotgan sport musobaqalarida o'z vatanlari sha'nini munosib himoya qilish singari muhim vazifalar yoshlar ongiga singdirilib kelinmoqda. Mustaqillikka erishgan kunimizdan boshlab o'zining davlat ramzlarini qabul qilgan mamlakatimiz sportchilari o'zlarining jonajon vatani bo'lgan O'zbekiston deb nomlangan yangi davlat bayrog'i ostida Osiyo, Jahon, Olimpiya va Paralimpiya sport musobaqalarida ishtirok etayotganliklari hamda vatanimiz sharafiga munosib himoya qilib kelayotganliklari biz uchun katta kuch va katta iftixordir. Mustaqil diyorumiz sharafiga mardona himoya qilib, Olimpiya va Paralimpiya sport musobaqalariga ishtirok etadigan sportchilarimiz uchun davlatimiz tomonidan qaratilayotgan e'tibor hamda yaratilayotgan sharoitlar natijasini Olimpiya va Paralimpiya sport musobaqalarida sportchilarimiz tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish hamda sog'lom turmush tarzini joriy etish maqsadida aholining barcha yoshdagi vakillari uchun “Alpomish va

Barchinoy” maxsus testlari va ta’lim muassasalarining barcha bo’g’inlarida sport musobaqalarini o’tkazish maqsadida umumta’lim maktab o’quvchilari uchun “Umid nihollari”, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining o’quvchilari uchun “Barkamol avlod” va Oliy ta’lim muassasalarining talaba yoshlari uchun “Universiada” sport musobaqalarining tashkil etilib o’tkazilib kelinganligidan bu yurtdagi yosh avlodni o’z vatanlarini dunyoga tanitish yo’lida oldilariga oliy maqsad qo’yib ulg’ayayotganliklarini anglash mumkin. Chunki sportchilar sportchilik maqomiga ega bo’lgunlariga qadar dastavval o’z hududlaridagi saralashlarda o’zi va o’zligining, oilasining, keyinchalik viloyat miqyosidagi sport musobaqalarida tumani va ta’lim muassasalarining va Respublika sport musobaqalarida viloyatlarining sha’nini himoya qilish bilan birga, jahon arenalarida yurt bayrog’ini ko’tarish nechog’lik ulug’ burch va vazifa ekanligini anglab, voyaga yetishadilar.

Xuddi shu singari bugungi kunda sport musobaqalarida mamlakatimiz sharafiga munosib himoya qilib, yurtimiz bayrog’ini jahon arenalarining eng yuqori cho’qqisiga ko’targan hamda butun dunyo sport ixlosmandlarini mamlakatimiz madhiyasini tinglashga majbur etgan haqiqiy vatanparvar o’g’il-qizlarimizning ko’p ekanligi bizni quvontirmoqda.

O’zbekiston, Osiyo, Jahon, Olimpiya va Paralimpiya sport musobaqalarida mamlakatimiz sharafiga munosib himoya qilayotgan sportchilarimizning natijasi bizning bu fikrimizga yaqqol dalil bo’la oladi. Jumladan, yurtimiz sharafiga munosib himoya qilib kelayotgan haqiqiy jasorat va matonat egalari Paralimpiya ishtirokchilari bo’lgan sportchilarimizning sport musobaqalaridagi qo’lga kiritayotgan yutuqlari va jasoratlarini misol keltirishimiz mumkin.

Ilk marotaba Gretsiyaning Afina shahrida bo’lib o’tgan “Afina-2004” XII Paralimpiya sport musobaqalarida O’zbekiston sharafiga yagona paralimpiyachi sportchimiz Yusuf Qodirov pauerlifting sport turidan ishtirok etgan holda himoya qilgan va bu bilan “Afina-2004” paralimpiya sport o’yinlarining ishtirokchisiga aylanishni boshlagan bo’lsa, 2007 yilda O’zbekiston Paralimpiya assotsiatsiyasi tashkil etilganidan so’ng Xitoyning poytaxti Pekin shahrida 2008-yili o’tkazilgan Paralimpiya o’yinlarida, ya’ni “Pekin-2008” Paralimpiya sport o’yinlarida O’zbekiston delegatsiyasi 2 ta sport turidan (pauerlifting va suzish sport turidan) ikki nafar sportchi bilan ishtirok etishdi.

2012 yil Londonda bo’lib o’tgan Paralimpiya sport o’yinlaridan mamlakatimiz sportchilari uchun g’alabali odimlar davri boshlandi desak, mubolag’a bo’lmaydi.

“London-2012” Paralimpiya sport o’yinlarida vakillarimizdan 10 nafar sportchi 4 ta sport turidan ishtirok etishib, 1 ta kumush medalni Sharif Xalilov dzyudo bo’yicha 73 kilogrammgacha vazn toifasida qo’lga kiritdi. Bu kumush medal o’zbekistonlik paralimpiyachi sportchilarimizning ilk marotaba Paralimpiya sport musobaqalarida qo’lga kiritgan yutug’i bo’lib, O’zbekiston tarixiga zarhal harflar bilan bitildi. O’zbekiston delegatsiyasi “London-2012” Paralimpiya sport o’yinlarining turnir jadvalida bitta kumush medal bilan umumjamoa hisobida 67-o’rinni egallashdi.

2016 yil Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo’lib o’tgan XXXII yozgi “Rio-2016” Paralimpiya sport o’yinlarida 8 ta sport turidan 32 nafar sportchimiz 58 ta yo’llanma bilan ishtirok etishdi va yakuniy natijalarga ko’ra, 32 nafar sportchimiz 31 ta medallarni qo’lga kiritib, turnir jadvalida 8 ta oltin, 6 ta kumush va 17 ta bronza medallarning sovrindoriga aylanib, umumjamoa hisobida 16-o’rinni egalladilar va Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi, MDH davlatlari orasida ikkinchi o’rinni

(1-o'rin Ukraina 171 sportchi bilan ishtirok etgan), Osiyo davlatlari o'rtasida 2-o'rin (Xitoydan keyin 326 ta sportchi bilan ishtirok etgan) ni qo'lga kiritdi.

“Rio-2016” Paralimpiya o'yinlarida dzyudo sport turi bo'yicha paradyudochilarimiz umumjamoa bo'yicha birinchi o'rinni egalladilar. Eng quvonarlisi shundaki, “Rio-2016” Paralimpiya sport o'yinlarida sportchilarimiz tomonidan 6 ta jahon, 7 ta Paralimpiya o'yinlari va 12 ta Osiyo rekordlari o'rnatildi.

“Tokio-2020” XVI Paralimpiya sport o'yinlarida O'zbekiston delegatsiyasidan 48 nafar sportchi 55 ta yo'llanma bilan ishtirok etishdi. Bunda 17 nafar parayengil atletika sportchilarimiz 19 ta yo'llanma bilan, suzish bo'yicha paralimpiyachilarimizdan 7 nafari 12 ta yo'llanma bilan, parakanoe turidan ishtirok etgan sportchilarimizning 3 nafari 3 ta yo'llanma bilan, o'q otish sport turidagi paralimpiyachilarimizdan bir nafar sportchi 1 ta yo'llanma bilan, paradyudochilarimizning 12 nafarlari 12 ta yo'llanma bilan, parakademik eshkak eshish bo'yicha 2 nafar sportchimiz 2 ta yo'llanma bilan, parapauerlifting sport turidan 3 nafar sportchimiz 3 ta yo'llanma bilan mamlakatimiz sharafigini himoya qildilar.

Yakuniy natijalarga ko'ra, o'zbekistonlik paralimpiyachilar 8 ta oltin, 6 ta kumush va 5 ta bronza medallarini qo'lga kiritishib, turnir jadvalining umumjamoa hisobida 16-o'rinni band qilib, bu ko'rsatkich bilan mamlakatimiz sportchilari Osiyo jamoalari (Xitoy, Yaponiya va Erondan so'ng) va MDH (Rossiya, Ukraina va Ozarbayjondan keyin) mamlakatlari orasida to'rtinchi, Markaziy Osiyo va turkiy xalqlar orasida birinchi o'rinni egallashdi.

Paralimpiya sport musobaqalari tarixida o'chmas iz qoldirayotgan o'zbekistonlik sportchilar qatorida mamlakatimiz sharafigini munosib himoya qilib davlatimizning dunyoga tanilishiga o'zining munosib hissasini qo'shayotgan surxondaryolik sportchilarimiz ham o'zlarining puxta tayyorgarliklarini dunyo arenalaridagi sport musobaqalarida namoyon etib kelmoqda.

Sportning yengil atletika turi bo'yicha “Rio-2016” Paralimpiya sport o'yinlarining bronza medallari sohiblari Hamrayev Faxriddin va sportning og'ir atletika (Paur Lifting) turi bo'yicha Bozorov Ahrorlarni e'tirof etishimiz mumkin bo'ladi. Yana bir sportchimiz (yengil atletikachi) Mirzaqulov Farrux “Rio-2016” Paralimpiya sport o'yinlarining ishtirokchisiga aylandi.

“Tokio-2020” XVI Paralimpiya sport o'yinlarida surxondaryolik Naimova Guljanoy qizimizning sportning Taekvando WTF turi bo'yicha faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritib, oltin medalga sazovor bo'lganligi haqiqiy matonat nishonasidir. Xurramova Lobar esa “Tokio-2020” XVI Paralimpiya sport o'yinlarida sportning dzyudo turi bo'yicha ishtirokchiga aylandi.

Bugungi kunga qadar Paralimpiya sport musobaqalari tarixida 5 nafar surxondaryolik sportchilar ishtirok etishib, shulardan 1 nafar oltin va 2 nafar bronza medallari bilan taqdirlandi.

Albatta, bu natijalar o'z-o'zidan bo'lgan emas, buning uchun bu borada davlatimiz tomonidan olib borilgan islohotlar va yaratilayotgan sharoitlar alohida e'tiborga molik. Qabul qilinayotgan me'yoriy hujjatlarda inson omilining ulug'lanishi va har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi singari ijobiy ahamiyatga ega qarorlarning ijro qilinishi sportchilarimizning ulkan yutuqlarga erishishlarida ilhom bag'ishlamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. М. Тўхтамирзаев, Ф. Турдиев, М. Расулова. “Олимп сари”. Ўқув қўлланма Ўзбекистон Миллий олимпия қўмитаси «Наврўз» нашриёти. Тошкент – 2017.
2. Хасанов И.Т. “Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси” I-қисм, Дарслик. Китоб нашр – 2021йил.
3. Toychievich K.I. (2022). Historical Characteristics, General Content and Stages of Development of Physical Education. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 5, 18-21.
4. Tuychiyevich X.I. (2022). Development Stages and Characteristics of the History of Physical Education. Central asian journal of social sciences and history, 3(2), 5-8. Retrieved from <https://cajssh.centralasianstudies.org/index.php/CAJSSH/article/view/244>.
5. Xasanov Ilyos Tuychievich. (2022). Development Stages and Characteristics of The History of Physical Education. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 5, 96–99. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/813>.
6. Xasanov I.T., & Sodiqova D.B. (2022). Specific ways to develop physical activity in preschool children. Miasto Przyszłości, 24, 20–25.
7. Hasanov I.T., & Mamataov F.B. (2022). Effectiveness of approaching a combination of theoretical and practical exercises in preparation for preschool children in physical training. Miasto Przyszłości, 24, 4–7.
8. Хасанов И.Т. (2022). Имконияти чекланганларга имкон берайликжамиятда фаол шахсларнинг сони кўпайсин. Academic research in educational sciences, 3(6), 785–790.
9. Tuychievich H.I. (2022). Paralympic Sports Competitions – A Field of Courage and Courage! International Journal of Culture and Modernity, 17, 474–477. Retrieved from <https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm/article/view/371>.
10. Hasanov I.T. (2022) Organizational basis of physical education of children in preschool educational institutions Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT 2(6) 181-182. <https://literature.academicjournal.io/index.php/literature/article/view/434>.
11. Tursunpulatovich M.N. (2022). Active forms of rest for increasing the workability of gymnasts. Modern Journal of Social Sciences and Humanities, 4, 183–185. Retrieved from <https://mjssh.academicjournal.io/index.php/mjssh/article/view/97>
12. Navruz M. (2022). Features of psychological preparation of gymnasts. Modern Journal of Social Sciences and Humanities, 4, 186–188. Retrieved from <https://mjssh.academicjournal.io/index.php/mjssh/article/view/98>.